

“Afrig” atamasi kelib chiqishi xususida yangi qarashlar va yondashuvlar

Mardonbek Rajapov Qosimboy o‘g‘li,

O‘zR FA Tarix instituti

tayanch doktoranti

E-mail: mardonbekoff@gmail.com

Tadqiqotchilar “Afrig” atamasi kelib chiqishi masalasida Beruniy asaridagi ma’lumotlarning arxeologik topilmalarga qiyosiy tahlili, shunigdek tilshunoslik metodlaridan keng foydalangan holda sulola tarixiga oid muhim xulosalar chiqarganliklarining guvohi bo‘ldik. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kundagi vaziyat oradan ancha vaqt o‘tishiga qaramay, bu borada ochiq turgan masalalar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu ayniqsa milliy tarixshunoslikda yaqqol namoyon bo‘ladi. “Afrig” atamasining kelib chiqishi afsuski, vatan tarixidagi tadqiqotlarda uchratilmaydi. Masala xorij tarixshunoligida, xususan fors va ingliz tilli tadqiqotlarda atroflicha o‘rganilgan.

Eronlik tadqiqotchi T.Daryoyiy Sosoniy an‘analarining ta’siri va tarixining qudrati islom davrida ham saqlanib qolganligini, hatto asli turkiy bo‘lgan G‘aznaviylar ham sosoniylarning so‘nggi shohi Yazdigird III oilasi bilan nikoh aloqalari borligini, Tohiriylar esa fors qahramoni Rustam; Safforiylar sulolasi Eron shohi Jamshid; Afrig‘iylar xorazmshohlari ularni qahramon Siyovush bilan bog‘laydigan afsonaga ega ekanligini ta’kidlagan[1,p.9 ;2,p.134-135]. T.Daryoyiy yuqorida tilga olingan sulolarning kelib chiqishini asli eroniy sulola ekanligiga urg‘u bergan. Bu o‘rinda shuni aytish mumkinki, o‘rta asrlarda legitimatsiya uchun ba’zi hukmdorlar o‘zlarini tarixda o‘tgan mashhur sulolalarga bog‘laganliklarini ham e’tiborga olish kerak.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarida Afrig‘iylarning 22 hukmdori ro‘yxatini keltirigan bo‘lib, tadqiqotchilar uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki, boshqa hech bir manbada Afrig‘iylarning hukmdorlar ro‘yxati keltirilmagan. Ushbu manbaga tayangan holda eronlik tadqiqotchi J.Mufrad “Afrig” atamsining kelib chiqishiga bevosita to‘xtalib, Af/of/ob-suv va rig/riz esa suvni to‘ldirish va to‘kish

ya'ni daryoning quyi oqimida yashaydigan odamlar anglatilishini ta'kidlagan[4,p.1-4]. Bu o'rinda shuni aytish mumkinki, qadimgi eronliklar tomonidan Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan xalqlarni Afrig'iylar umumiy nom bilan ya'ni suvning quyilish qismida yashaydiganlar deb atashgan. Keyinchalik bu nom sulola nomiga aylangan bo'lishimi mumkin. Sababi, olib borilgan arxeologik-numizmatik tadqiqotlardaning birontasida Beruniy tomonidan qayd etilgan 22 hukmdorning birinchisi Afrig' haqida ma'lumot topilmagan. Bundan xulosa kelib chiqadiki, Afrig' shaxs nomi emas, balki joy nomiga yaqindir. Shuning uchun ham o'rganilyatogan mavzu doirasida Beruniy ma'lumotlarida keltirilgan Afrig'iylarning birinchi shohi -Afrig'ni, "afsonaviy Afrig'" sifatida qo'llashni lozim topdik. Yana bir eronlik tadqiqotchi P.Azkoyiy ko'rilayotgan masalaga to'xtalib, "Afrig'" nomini 3 qismga bo'lib tilshunoslik nuqtai-nazardan tahlil qiladi. Muallif fikricha, "Af" yoki "ap" fors tilidagi "afrashtan" ma'nosi "ko'tarmoq"; "ar", "air" esa "Aryan" ya'ni Oriylar mamlakati; "ig" esa eroniy tillardagi munosabat qo'shimchasi bo'lib, ingliz tilidagi "-ic" yoki fransuz tilidagi "-ique", o'zbek tilida "-niki" ga o'xshashligini va "Afrig"ni oriylar, "Afrig'iylar" ni oriylar mamlakati sifatida talqin qiladi[10, s.141]. P.Azkoyi ham tadqiqotlarida Afrig'ni shaxs sifatida emas, balki geografik hudud sifatida tahlil qilgan. Yana bir eronlik tadqiqotchi J.Heraviy "Afrig'" atamasi kelib chiqishiga to'xtalib, Sosoniy Shapur I, Xorazm hududida, Arshakidlar imperiyasining ustidan mustaqillik uchun davom etayotgan qo'zg'olonni bostirib, bu hududga xavfsizlikni ta'minlaganidan so'ng, Afrigga hududlar va "shoh" unvonini berganini, "Afrig'" ning lug'aviy ma'nosi oriy naslidan kelib chiqqani va "eronvih" ya'ni, "eroniy zot", "eronlik" yoki "eron farzandi" ekanligini ta'kidlagan[9]. 1937-yil S.P Tolstov rahbarligidagi Xorazm ekspeditisyasi Katda arxeologik qazishm ishlari olib borish natijasida Afrig'iylarga tegishli tangalar topilishi sulolaga oid ilmiy yangiliklardan biri edi. Hatto S.P.Tolstov o'sha tangalardan biriga quyidagicha ta'rif beradi: *"...topilgan tangalarning bir tomonida qirra burunli, soqoli siyrak, ko'zlari katta-katta Afrig' tasvirlangan, uning bo'ynida ikki qator marjon shodasi, boshida esa old qismini yarim oy bezatib turgan toj mavjud. Tangalarning ikkinchi tomonida an'anaviy*

chavandoz tasviri, uning tepasida yunoncha, ostida esa xorazmiy tilida „podshoh Afrig“ deb bitilgan qo'yilgan[11, C. 191-192] . Ammo keyingi tadqiqotlarda S.P.Tolstov ishlari keskin tanqidga uchradi. Xususan, S.P.Tolstov tomonidan “Podsho Afrig” deb o‘qilgan tanga B.I.Vaynberg va V.A.Livshits tomonidan “Bivarsar” [bwrsr] nomi bilan o‘qilgan[12, C. 116.]. S.P.Tolstovning tangalardagi yozuvni o‘qish usullari tangashunoslar orasida keng qabul qilinmagani ta’kidlash lozim. Xususan N.R.Frey va V.B.Henning ishlarida S.P.Tolstovni tangalar ustidagi Xorazm tilida yozilgan hukmdor ismlarini Beruniy tomonidan yozib qoldirilgan shajaradagi ismlarga moslashtirish yoki mos keladigan qilib harakat qilishi sababli keskin tanqid qilgan[5,p.20 ; 6, p.23]. O.Masharipov Afrig‘ shaxsiyati haqida fikr bildirib, Kat shahrini obod va go‘zal shaharga aylantirgani, ariqlar qazdirib, barcha mamlakatlar bilan savdo aloqalari uchun yo‘llar qurdirganini ta’kidlagan[7, B.15]. Biroq, tadqiqotchining mazkur fikrlari yozma va arxeologik tadqiqotlarda o‘z isbotini topmagan. Bu o‘rinda, muallifning Afrig‘ni barcha ijobiy hukmdorlarga xos sifatlar bilan muvofiqlashtirishga urinishini tarixiy haqqoniylikdan uzoqlashish sifatida baholash mumkin. E.V. Rtveladze Xorazm tarixiga oid ilmiy nashrlarda qabul qilingan fikrlarga qo‘shilmagan va bir qancha muhim xulosalar chiqaradi. Tadqiqotchining fikricha, Beruniy Afrig‘ning hokimiyat tepasiga kelishi haqida hech narsa aytmagani, faqat Iskandar davrining 616-yilida (milodiy 305-yilda) al-Fir ustida o‘z saroyini qurdirganini aytadi[8,C.94]. E.V. Rtveladze Xorazm hukmdorlari ro‘yxatini o‘z ichiga olgan numuzmatik materiallarga asoslanib III asr boshi – IV asr oxirida Xorazmda zarb qilingan tangalarda Afrig’ nomi yo‘qligini to‘liq ko‘rsatishini ta’kidlaydi[8,C.94]. Maullif shuningdek, Beruniy ma’lumotlariga ko‘ra Afrig‘ning hukmronlik yillari milodiy 304-305-yillarga, biroq tangashunoslik materiallarida o‘qilgan shoh Vazamar nomiga to‘g‘ri kelishini istisnosiz holda ta’kidlaydi[8,C.94-95]. Uning fikricha, Vazamar bu hukmdor nomi, Afrig‘ esa sulola nomi. Vazamar nomi numuzmatik materiallarda o‘z aksini topgan bo‘lsa, Afrig‘ nomi Beruniy ma’lumotlarida uchraydi. E.V. Rtveladze Afrig‘iylar sulolasi nomini Vazamariylar sulolasi nomiga almashtirishni taklif qiladi[8, C.95].

Yuqoridagi aytilgan fikr va mulohazalarni tahlil qilish asnosida “Afrig” atamasi etimologiyasi Javad Mufrad ta’kidlanganidek suv bo’yida yashaydigan ma’nosiga yaqin. Bizningcha “Afrig” so’zi eronliklar tomonidan Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan xalqlarga nisbatan qo’llanilgan tarixiy toponim. Arxeologik tadqiqotlar davomida sulola asoschisi sifatida e’tirof etilgan Afrig haqida hech narsa aniqlanmaganiga qaramay, birlamchi manba Beruniy asarida keltirilgan ma’lumotlarni inkor etib bo’lmaydi.

Afsuski boshqa tadqiqotchilarining ishlarida “Afrig” atamasining kelib chiqishiga doir izlanishlar kuzatilmaydi. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotda yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni taqdim etish bilan cheklaniladi. Keyingi tadqiqotlarda sulola tarixi va uning mintaqa ijtimoiy-siyosiy roli haqida kengroq tushunchaga ega bo’lish uchun arxeologik va numizmatik tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.T.Daryae, Kh.Rezakhani. From Oxus to Euphrates: The World of Late Antique Iran.Vol 1. H&S Media.UK.2016.p 9.
- 2.T.Daryae. Kings, whores and children. Passing Notes On Ancient Iran And The World That We Live In. Mehri publication.London.2018.p-134-135
3. Бируни Абу Райхан. Избранные произведения. т.I, «Памятники минувших поколений» ,Ташкент , Изд-во АН УзССР,1957.
4. Javad Mofrad. The meanings of the names of the rivers Sirdarya and Amodarya Iran – Iranshahr. P.1-4
- 5.R.N.Frye, R. N.Notes on the early coinage of Transoxiana. Numismatic Notes and Monographs.1947.p-20. <https://www.jstor.org/stable/43607329>
- 6.R.N.Frye,W.B.Henning.Additional notes on the early coinage of Transoxiana II. Museum Notes (ANS).7, 1957.pp-23. <https://www.jstor.org/stable/43574194>
- 7.О.Машарипов. Хоразм тарихидан саҳифалар. Тошкент.1994. Б.15

8. Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма// Хорезм в государственности Узбекистан. – Ташкент, 2013. С. 94.
9. پژوهش نامه تاريخ - سال سوم - شماره دهم // ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان . Javad Heravi . چکیده
- 10.Pervîz E.“Hânedân-ı Şâhiye-i Hârezm”. Mecelle-i Îrân-Şinâht. S. 10. Kısmet-i Evvel.s.141
- 11.С.П. Толстов.По следам древнехорезмийской цивилизации.Издательство Академии Наук СССР, 1948.
12. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука, 1977.С. 116, № 207, X VII, VII
- 13.Rajapov, M. (2024). Beruniyning “Osor ul-boqiya” asari afrig‘iylar davri tarixini o‘rganishda muhim manba . in Library, 1(1), 122–125. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/30777>
14. RAJAPOV, M. (2024). DECIPHERING THE SCRIPTS AND LANGUAGES OF AFRIGHID KHOREZM A HISTORIOGRAPHICAL REVIEW. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 4(04), 38–46. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/jsshrf/article/view/34109>
15. Rajapov, M. Q. "THE STUDY OF THE ECONOMIC AND SOCIAL LIFE OF KHOREZM DURING THE AFRIGHID PERIOD (A HISTORIOGRAPHICAL ANALYSIS)." Academic research in educational sciences 2 (2024): 730-736.